# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024




№ 8

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 492 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta o'qituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish ..... 16
**Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna**

Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash ..... 20
**Shakarov Zafar Gafforovich**

Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему ..... 24
**С.С. Исмаилов**

"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili ..... 32
**Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich**

Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari ..... 37
**Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li**

Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari ..... 41
**Sh.B. Donayev**

Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir ..... 45
**Xursandov Komiljon Maxmatkulovich**

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish ..... 49
**Idirisov Alisher Otajonovich**

Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari ..... 53
**Sultanov Maxmud Axmedovich**

Poverty in developing countries: new problems and solutions ..... 57
**Amirdjanova Sitora Sunnat kizi**

Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики ..... 61
**Вохидова Мехри Хасановна**

Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран ..... 69
**Буранова Лола Вахобовна**

Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi ..... 78
**Babamatov Tolib Xakimovich**

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ..... 83
**S.A.Karabayev**

O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari ..... 90
**Yusupov Aziz Shuxratovich**

Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi ..... 95
**Gulbayeva Feruza Islamovna**

Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri ..... 102
**Sherov Alisher Bakberganovich**

Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili ..... 107
**Sayidova Maftuna Hamroqul qizi**

O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ..... 111
**Umarova Malika Baxtiyarovna**

Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций ..... 116
**Умида Юлдашева**

Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях ..... 120
**Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович**

Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish ........ 127
**Ismoilov Sherzod Dilshodovich**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari ........ 132
**Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li**

Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari ........ 138
**Sharipov Narzullo G'ulomovich**

O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi ........ 144
**Shadieva Madina Djaloliddin qizi**

Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari ........ 148
**Jumanazarova Z.K.**

Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri ........ 154
**Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich**

Oliygohlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari ........ 158
**Adizov Sanjar Rashidovich**

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish ........ 165
**Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi**

Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме ........ 174
**Касимова Зилола Гуламиддиновна**

O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantrish ........ 182
**Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li**

Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане ........ 186
**Шахзод Сайдуллаев**

Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish ........ 192
**Ahmedov Komron Muhammadaliyevich**

Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili ........ 196
**Quyjanov Xurshid Abdullayevich**

Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari ........ 200
**Bakayev Xurshid Maxmudovich**

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati ........ 206
**Normurzayev Umid Xolmurzayevich**

Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства ........ 214
**Нурутдинова Зухра Алишеровна**

Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati ........ 220
**Madaminova Sanobar Askarovna**

Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari ........ 226
**Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li**

Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili ........ 230
**Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi**

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish ........ 234
**Uzakova Umida Ruziyevna**

O'zbekisonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari ........ 241
**Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li**

Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar ........ 247
**Boykabilov Bahodir Mustafayevich**

Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv ........ 251
Ozoda Batirovna Sakiyeva

Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari ........ 255
N.N.Zikrillayev

Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari ........ 263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna

The connection of legal protection of geographical indications and state’s economic growth ........ 268
Almosova Shahnoza Sobirovna

Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish ........ 273
Israilov Rustam Ibragimovich

Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari ........ 277
D.D. Suvanova

Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов ........ 283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи

Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari ........ 290
Xannarov Komiljon Karimovich

Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili ........ 296
Yoqubov Murodjon Valibekovich

Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий ........ 302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usuliga asos solinishi ........ 306
Abdulla Abduqodirov

Kichik biznes korxonalari ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilish yo‘llari ........ 312
Nasrullayev Feruz Furqatovich

Ijtimoiy-iqtisodiy adolat – barqaror rivojlanish kafolati ........ 318
Alimov Nasimjon Hoshimovich

“Istiqlol” memhonxonasi reklama faoliyati tahlili ........ 322
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy belgilovchi omillar ........ 328
Xaydarov Xurshidbek Latipjonovich

Enhancing Industrial Efficiency through Integrative Sustainability Approaches ........ 334
Kholmukhamedova Feruza

Современные способы получения нефтяных битумов ........ 338
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович

O‘zbekistonda agrobiznes orqali hududlarni rivojlantirish masalalari ........ 342
Islomov Jamshed Davronovich

Зарубежный опыт трансформации железнодорожной транспортной системы ........ 347
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна

Sog‘liqni saqlash sohasida davlat xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari ........ 351
Qurbanov Jumanazar Omonovich

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisob siyosatini shakllantirish ........ 354
Uzakov Utkir Abdusattarovich

Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi ........ 357
Gulbayeva Feruza Islamovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ta'lim muassasalarida namunaviy shtat, jadvallarni tuzish tartiblarini takomillashtirish ........ 364
**Ortiqov Xamroqul Abdumajidovich, Boliyev Bahromjon Rustam o'g'li**

Mamlakatimizda turizm sohasini istiqbolda rivojlantirishga ta'sir etuvchi ekzogen omillar tahlili ........ 369
**Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna**

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining masofaviy va boshqa xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish masalalari ........ 378
**Ortiqov Oybek Abdullayevich**

Transport infratuzilmasining xususiyatlari ........ 390
**Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi**

Asosiy vositalarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish tartibi ........ 394
**Shermamatov Sirojiddin Xaydarovich**

Logistika jarayonlarida raqamli yechimlar ........ 399
**Yarashova Vasila Kamalovna, Allabergenov Sherzod Maksudbayevich**

To'g'ridan to'g'ri sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha daromadlarning hisobini takomillashtirish ........ 403
**Abdusaidov S.J.**

Venchur kapitali: kelib chiqish tarixi va ilg'or horijiy tajribalar ........ 409
**Do'stov Firuz Ilxomovich**

Анализ статистического исследования рынка паломнического туризма в республике узбекистан ........ 414
**Мустаева Шохида Саъдуллаевна**

Структурно-функциональный анализ гастрономического туризма в республике узбекистан ........ 420
**Салиева Екатерина Сергеевна**

Вопросы привлечения внешнего финансирования металлургических предприятий в узбекистане ........ 427
**Татьяна Будей**

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari ........ 431
**Khusanov Nodirbek Djumanazarovich**

Innovatsion g'oyalar va yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish yo'llari ........ 437
**Daliyev Xusan Xojakbarovich**

Macroeconomic factors in the development of the banking performance ........ 442
**Mamadiyorova Madina Nuriddin kizi, Dr.Susanti Kurniawati, X.S.Umarov**

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi ........ 449
**Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li**

Ecological sustainability and trade: economic and environmental implications of uzbekistan's accession to the WTO ........ 453
**Mironshokh Sattarov, Denny Andriana, Sirojiddin Yangiboyev**

Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'ziga xos tendensiyalari ........ 458
**Dustmurodov Orifjon Ismatilloyevich**

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy – nazariy asoslari ........ 468
**Davletov Po'lat Torabayevich**

Ekoshahar tashkil etishda "yashil" belbog' hamda "yashil" makonning o'rni ........ 476
**Karimova Muqaddas Zabixullayevna**

Необходимость изучения механизма управления социально-трудовыми отношениями при переходе республики узбекистан на «зеленую» экономику ........ 479
**Раматов Зафарбек Жуманиязович**

Klasterlarning rivojlanish tarixi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va raqobatbardoshlikdagi o‘rni ....... 482
**Sherkulov Shohruh Erkin o‘g‘li**

Soliqlarni raqamlashtirish: QQS ning muammo va istiqbollari ........................................................................ 486
**Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna**

# SOLIQLARNI RAQAMLASHTIRISH: QQS NING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI

**Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna**
TDIU doktoranti

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichining barcha faoliyat sohalari singari soliq tizimida ham raqamli texnologiyalarni qo'llash, global axborot muhitida tarqalgan innovatsiyalarni joriy etish xalqaro iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Soliqlar undirish tizimini raqamlashtirish, yangi texnologik yechimlarni izlash, soliqning yangi shakllarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu borada bir qator muammolar mavjud bo'lib, ushbu maqolada uni bartaraf etish jihatlariga e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, soliq nazorati, soliq tizimi, soliq islohoti, soliq siyosati, soliqqa tortish, soliq ma'murchiligi, soliq to'lovchi, QQS.

Abstract: The use of digital technologies in the tax system, as well as in all spheres of activity at the current stage of the development of the global economy, and the introduction of innovations spread in the global information environment are an important factor of international economic development. Digitization of the tax collection system, search for new technological solutions, and development of new forms of taxation are considered desirable. There are a number of mammos in this regard, and this article will focus on the aspects of its elimination.

Key words: digital economy, digital technologies, tax control, tax system, tax reform, tax policy, taxation, tax administration, taxpayer, VAT.

Аннотация: Использование цифровых технологий в налоговой системе, а также во всех сферах деятельности на современном этапе развития глобальной экономики, внедрение инноваций, распространяющихся в глобальной информационной среде, является важным фактором международного экономического развития. Желательными считаются цифровизация системы сбора налогов, поиск новых технологических решений, развитие новых форм налогообложения. На этот счет существует ряд проблемы, и в данной статье речь пойдет об аспектах их устранения.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, налоговый контроль, налоговая система, налоговая реформа, налоговая политика, налогообложение, налоговое администрирование, налогоплательщик, НДС.

## KIRISH

Jahon amaliyotida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyoti rivojlanish qonuniyatlari soliq omillarini atroflicha tahlil qilish, soliq turlarini unifikatsiya qilish, elektron tizim va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash asosida soliqlarni undirish va soliq hisobotlarini taqdim etish, biznesni yuritish uchun qulay investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhtini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichining barcha faoliyat sohalari singari soliq tizimida ham raqamli texnologiyalarni qo'llash, global axborot muhitida tarqalgan innovatsiyalarni joriy etish xalqaro iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Dunyoning aksariyat mamlakatlari singari O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida ham egri soliqlar, jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i muhim o'rinni egallaydi. Soliqlar undirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda yangi texnologik yechimlarni izlash, soliqning yangi shakllarini rivojlantirish, yashirin ma'lumotlarni aniqlash, soliq va yig'imlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarni bajarish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash soliq nazorati samaradorligi va shaffofligini oshirish, soliq ma'lumotlari almashinuvi jarayonlarini standartlashtirish, soliq undirishdagi tarkibiy o'zgarishlar ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Raqamli iqtisodiyotdagi soliq munosabatlari masalalari ko‘plab zamonaviy olimlar tomonidan tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asoslari L.I. Goncharenko, I.A. Mayburov, Yu.B. Ivanov, Ye.N. Vishnevskoy, Ye.A. Kirov, D.K. Grunin, K.T. Anisina, B.G. Badmayeva, A.V. Belitskoy, V.A. Vaipan, V.V. Popov, D. Klein, E.Kitsios va boshqa bir qator tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan.

Soliq nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotining ayrim masalalari bo‘yicha zamonaviy rossiyalik iqtisodchilardan N.N. Tyupakov, Yu.N. Pavlenko, M.R. Pinskaya, D.A. Artemenko, M.O. Kleymenova, Ye.N Golik, G.P Tolstopyatenko, A.V. Ugryumov, A.F. Xapilin, I.A. Sidilin va boshqalarning tadqiqotlari soliq undirishning nazariy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Raqamli iqtisodiyot va raqamli ta’sir masalalari bo‘yicha tadqiqotlarni D. V. Zorkin, S. M. Zubarev, A. V. Krasyukova, A. A. Kopina, A. A. Saurina, Ranchordas Sofiya va boshqa olib borgan.

Mamlakatimiz milliy soliq tizimi va soliqqa tortish amaliyotini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan olim va amaliyotchi mutaxassislarimizdan A.H. Toshqulov, S.K. Xudoyqulov, T. Malikov, Sh. Gataulin, I. Zavalishina, I. Niyazmetov, X. Sobirov, Sh. Toshmatov, B. Toshmurodova, N. Xaydarov, Q. Ahyoyevlarni ilmiy ishlarini ham misol keltirish mumkin.

O‘rganilayotgan muammo ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilganligiga qaramay, O‘zbekiston Respublikasi fiskal salohiyatini oshirish, soliq qonunchiligining buzilishiga chek qo‘yish, shuningdek, raqamlashtirish asosida QQS soliqlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash xususida soliq nazorati shakllari va usullarini ishlab chiqishga obyektiv ilmiy-amaliy zaruriyat mavjud.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Soliqlarning yig‘iluvchanligiga oid tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalaniladi. Soliq islohotlarining rivojlanish tendensiyalarini umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan kengroq foydalanildi. Xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda sintez va tahlil usullarini kengroq foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalariga kirib bormokda. Bulutli texnologiyalar, blokcheyn, narsalar interneti, mashinalarni o‘rganish va sun’iy intellekt texnologiyalari samarali rivojlanib bormokda. Raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va ularni tatbiq etish natijasida mamlakatlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlari yanada kuchayib bormoqda. Ma’lumki, har qanday jamiyat va davlatning asosiy maqsadi aholi farovonligini ta’minlash, aholi turmush sharoitini yuksaltirish hamda kelajak avlod uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Xuddi shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida 2020-yil 5-oktyabrda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni[1], 2020-yil 28 aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2]gi Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi.

Mahalliy va xorijiy manbalarda raqamlashtirish jarayonlari, xususan, iqtisodiyotni raqamlashtirish ilmiy muxitda ham, biznes muxitida ham ko‘rib chiqiladi. Birinchisi inqilobning asosiy asoslarini aniqlashga harakat qiladi, ikkinchisi raqamli yechimlarni joriy qilish uchun eng foydali yo‘nalishlarni izlaydi.

Ingliz adabiyotida Angliya va Uels Chartered buxgalterlar institutining “soliqlarni raqamlashtirish: xalkaro istikbollar”[3] hisoboti qiziqish uyg‘otadi, unda maqsadlar, istiqbollar, raqamlashtirishning murakkabligi masalalari, shuningdek, Rossiya va boshqa bir qator mamlakatlar tajribasi ko‘rib chikiladi.

Raqamli iqtisodiyot juda ko‘p afzalliklarga ega. Bu to‘lovlarning narxini pasaytiradi va yangi daromad manbalarini ochadi. Onlayn xizmat ko‘rsatish harajatlari an’anaviy iqtisodiyotga qaraganda ancha past va xizmatlari ham ijtimoiy, ham tijorat jihatidan ancha arzonroqdir. Taklif etilayotgan mahsulot iste’molchining yangi istaklari yoki ehtiyojlarini qondirish uchun darhol o‘zgartirilishi mumkin. Raqamli iqtisod har xil axborot, ta’lim, ilmiy sohadagi yangiliklarni tez, sifatli va qulay tarzda taqdim etadi.

Quyidagi 1-rasmda an’anaviy iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni keltirilgan.

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.10.2020 йилдаги ПФ-6079-сон Фармони,. Lex.uz
2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.04.2020 йилдаги ПҚ-4699-сон Қарори, Lex.uz
3 Aplin P. Digitalisation of tax: international perspectives. URL: https://www.icaew.com//media/corporate/files/technical/digital-tax.ashx?la=en (access date: 25.01.2019-2 c.




1-rasm. Raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni[4].

Raqamli iqtisodning g'oyalari integratsiyalashgan bir hodisa sifatida milliy raqamli strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni boshlagan hukumatlarning siyosiy kun tartibiga va raqamlashtirish ishlarini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilotlarga bosqichma-bosqich kirib keldi. Xususan, 2015-yilda Antaliyada G20 rahbarlari "Raqamli iqtisodiyotda rivojlanish va hamkorlik (G20 Digital Economy Development and Cooperation Initiative) Dasturi" nomli yakuniy hujjatni qabul qildi,[5] 2016-yilda Kankun shahrida vazirlar yig'ilishida "Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish tashkiloti" davlatlari raqamli iqtisod sohasida umumiy maqsadlar va 2017 yilda Gamburg shahrida raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy yondashuvlarini muhokama qildi[6].

Raqamli iqtisodiyotning soddalashtirilgan oddiy ta'rifi formula bilan ifodalanishi mumkin: raqamlashtirish = o'zgarish. Bundan tashkari, sifat va miqdoriy darajada o'zgarishlar mavjud. Turli obyektlarni raqamlashtirishni ko'rib chiqishda amalga oshirish sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil ta'riflar paydo bo'ladi. Quyida (1-jadval) raqamli iqtisodiyot va raqamlashtirish tushunchalariga mualliflarning yondashuvlari keltirilgan.

1-jadval. Raqamlashtirish tushunchasiga mualliflarning yondashuvlari[7].

| № | Muallif | Ilmiy qarashlar |
|---|---|---|
| 1 | A.A. Kapin | yangi raqamli vositalarning paydo bo'lishi va ularni iqtisodiy munosabatlarga faol joriy etish |
| 2 | S.M. Zubarev | turli sohalarda raqamli texnologiyalarni ko'llash jarayoni |
| 3 | Xalin va G.V. Chernov | hayot sifatini yaxshilash va iqtisodiyot samaradorligini oshirish |
| 4 | N.V. Omelekxin | raqamlashtirish haqiqatni aks ettirish usuli, ma'lumotni aniqlashning raqamli usulidir. |
| 5 | Don Tapskott | tarmoqli intellekt asrida va'da va xavf-xatar |
| 6 | A.A. Engovatova | bu ma'lumotni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning yangi usullari |
| 7 | Manuyel Kastels | axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishdagi o'zgarishlar |
| 8 | S.S. G'ulomov | axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uning o'ziga xos xususiyati bo'lgan iqtisodiyotdir |
| 9 | T.N. Butseva | an'anaviy aloqa, yozish va ma'lumotlar uzatish shaklidan raqamli qurilmalar yordamida amalga oshiriladigan raqamli shaklga o'tish |

Jadvaldagi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bir qator olimlar raqamlashtirish tushunchasiga o'zlarining yondashuvlari keltirib, raqamlashtirish borasida ijobiy firklar keltirilgan. Shular qatoridan A.A. Kapin iqtisodiyotni

4 Муаллиф томонидан иқтисодий адабиётлар асосида тузилган.
5 [Электрон ресурс]: http://g20.org.tr/ 23.11.2018.
6 [Электрон ресурс]: http://www.oecd.org
7 Жадвал муаллиф томонидан шакллантирилган.

raqamlashtirishni birinchi navbatda yangi raqamli vositalarning paydo bo'lishi va ularni iqtisodiy munosabatlarga faol joriy etish bilan bog'laydi. S.M. Zubarev raqamlashtirishni turli sohalarda raqamli texnologiyalarni ko'llash jarayoni deb hisoblaydi.

V.G. Xalin va G.V. Chernov hayot sifatini yaxshilash va iqtisodiyot samaradorligini oshirishga karatilgan ma'lumotlarni takdim etish uchun raqamli formatga o'tish jarayoni deb baholagan. N.V. Omelekxin raqamlashtirishni haqiqatni aks ettirish hamda haqiqatni o'zgartirish va ma'lumotni aniqlashning raqamli usuli deb hisoblaydi.

A.A. Saurin fikriga ko'ra, raqamlashtirish ikkilik kod tamoyillari asosida ma'lumotlarni yaratish, qayta ishlash va uzatish bo'yicha munosabatlar majmuasidir[8]. Ushbu pozitsiya axborotlashtirishning axborot texnologiyalaridan foydalangan holda axborotni qidirish, olish, uzatish, ishlab chiqarish va tarqatish bilan bog'liq munosabatlar sifatidagi rasmiy ta'rifidan bevosita kelib chikadi[9].

S.M. Zubarev davlat boshqaruvini raqamlashtirishni davlat organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni sifatida belgilaydi.

Demak, boshqaruvni raqamlashtirish natijasida mamlakat o'z vazifalarini bajarishini sifat jihatidan ijobiy tomonga o'zgartiradi va fuqarolar hamda davlat orasidagi samarali hamkorlikni ta'minlashda xizmat ko'rsatadi.

Soliq tizimini bochqichma-bosqich takomillashtirilishiga qaramay, hozirgi vaqtda soliqlarni raqamlashtirishda bir qator muammalar mavjud bo'lib, muammoni bartaraf etish chora-tadbirlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Soliqlarni raqamlashtirishdagi asosiy muammolar[10].

| Muammo | Muammo tasnifi | Muammoni bartaraf etish yo'llari |
|---|---|---|
| **Tarmoqdan uzilish va aloqaning pastligi** | Axborot-kommunikatsiya aloqalarini o'rnatish imkoni yo'qligi (masalan, internetning yo'qligi O'zbekistonning chekka aholi punktlari). | Axborot tizimlarini birlashtirish, mas'uliyatni oshirish; tashkilot uzok hududlarda internetga ulanish sharoitlarini yaratish. |
| **Xarajatning yuqoriligi** | Yangi dasturiy ta'minotni joriy etishning qimmatga tushishi; | Soliq organlarining harajatlarini soliq yig'imini ko'paytirishdan soliq to'lovchilar soliqlarni vaqtida to'lash orqali turli jarimalarga tortilishini kamaytirish; |
| **Inson omili** | inson omili ishtirokining mavjudligi | texnologiya yordamida inson omili ishtirokini kamaytirish |
| **Tajriba yetishmasligi** | yangi dasturlar bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish uchun ixtisoslashgan xodimlarning yetishmasligi, | tushuntirishlar olib borish; xodimlarning malakasini oshirish uchun o'quv seminarlari tashkillashtirish |
| **Xavfsizlikni ta'minlash** | Kerakli dasturiy ta'minotning yetishmasligi, suiste'molliklar uchun elektron aloqalar ochiqligi | Ma'lumotlar himoya tizimini takomillashtirish, nazoratni oshirish,. |
| **Ma'lumotlar bazalarining yetarli emasligi** | Ma'lumotlar bazalarining kamligi va shaxsiy ma'lumotlarning chiqib ketishi, hisobot ma'lumotlarining yangi formatga moslashtirilmaganligi | Muhim hujjatlarning yangi formatini ishlab chiqish, joriy qilish va amalda qo'llash. |
| **Qonunchilikdagi nomuvofiqliklar** | Rakamli iqtisodiyotdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy xujjatlarning mavjud emasligi, soliq undirishdagi texnologik saloxiyatning nomutanosibligi | Amaldagi qonun hujjatlariga yangi tartibga soluvchi hujjatlar ishlab chikish va joriy qilish |

Jadvalda ko'rsatilganidek soliq tizimini raqamlashtirishda tarmoqli uzilish, xarajatlarning yuqoriligi, inson omili ishtirokining mavjudligi, tajriba yetishmasligi, xavfsizlikni ta'minlash, ma'lumotlar bazalarini yetishmasligi hamda qonunchilikning nomufoqligi kabi qator o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish natijasida, shuningdek, soliqlarni raqamlashtirish orqali yopik deb belgilangan har qanday davr uchun soliq ma'lumotlarini nashr etish yoki o'zgartirishni taqiqlash, davlat organlari tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlarini birlashtirish, soliqqa tortish to'g'risidagi ma'lumotlarni saralash hamda alohida saqlash, chegaralangan funksiya va vazifalardan foydalanish tizimi orqali soliq inspektorlarining vazifalarini

8 Саурин А.А. Цифровизация как фактор трансформации права // Конституционное и муниципальное право. – 2019. – № 8. – С. 26–27.

9 Подпункт 1 пункта 1 статьи 12 Федерального закона от 27.07.2006 № 149-ФЗ «Об информации, информационных технологиях и о защите информации» // [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.pravo.gov.ru.

10 Муаллиф томонидан тайёрланган

yengillashtirish, inson omili ishtirokini kamaytirish, ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlash, uchinchi shaxslar tomonidan ma'lumotlarning yo'qolishi, buzilishi yoki o'g'irlanishining oldini olishga erishiladi.

Quyida (2-rasm) soliqlarni raqamlashtirishning davlat hamda soliq to'lovchilar uchun afzalliklari keltirilgan.




2-rasm. Soliqlarni raqamlashtirishning afzalliklari[11].

1-rasmda keltirilganidek soliqlarni raqamlashtirish soliqqa tortishning shaffofligini oshirish: real vakt rejimida mahsulot sotish jarayonlarini nazorat qilish, hisoblash va to'lash to'g'risida davlatni avtomatik ravishda xabardor qilish, ya'ni soliq to'lashdan bo'yin tovlashni tubdan bartaraf etish, shuningdek, soliqlarn bo'yicha ma'muriyatchilik harajatlarini kamaytirish, QQSni hisoblash va to'lash jarayoniga inson omilining ta'sirini cheklash, korxonalardan ortikcha to'langan QQS so'mmalarini qoplash, hisob-kitob qilish va qaytarish bo'yicha (QQSning noto'g'ri hisoblangan va to'langan summalari) sonini kamaytirish va arizalar sonini kamaytirish imkonini beradi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish natijasida QQS bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi jarayonlari to'liq avtomatlashtirilishi mumkin, bu esa batafsil statistik hisobga olish va soliq bo'yicha davlat daromadlarini aniq prognoz qilish imkonini beradi.

QQS solig'ini raqamlashtirish O'zbekiston Respublikasida soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish uchun qo'llanilishi mumkin. Bunga soliq to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solish va soliq organlari uchun ushbu soliqning samaradorligini oshirish orkali erishiladi.

Birinchidan, raqamlashtirish QQSni hisoblash va to'lash ustidan nazoratni kuchaytirishga, keyinchalik esa bu jarayonni to'liq avtomatlashtirishga yordam beradi. Chunki soliq qonunchiligini buzish, shuningdek, ishbilarmonlik obro'sining pasayishi QQSni to'lashdan bo'yin tovlash uchun to'xtatuvchi omillarga aylanadi.

Ikkinchidan, soliqni hisobga olish xarajatlarining kamayishi tadbirkorlik subektlarining soliq yukini kamaytiradi va shu orkali narxlar raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida QQS to'lashdan majburiy bo'yin tovlashni bartaraf etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy xulosa qilib aytish mumkinki, soliqlarni raqamlashtirishdagi mavjud muammolarni o'rganib, muammolarni bartaraf etish uchun raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirish soliq to'lovchilari va soliq xizmati o'rtasidagi mavjud o'zaro xamkorlikni takomillashtirish, shuningdek, an'anaviy QQSdan uni raqamlashtirish, keyinchalik yangi sifat darajasiga – aqlli QQSga o'tishga ijobiy samara beradi. Aklli QQS – blokcheyn texnologiyasidan foydalanishga asoslangan, inson aralashuvisiz hisoblangan va undiriladigan kelajakdagi uni-

11 Расм муаллиф томонидан шакллантирилган.

versal bilvosita soliq modelidir. Avtomatlashtirishning bunday tizimida soliq to‘lovchining hisobvarag‘idan soliq summalarini chegirib tashlash hisob kitobi onlayn rejim orqali amalga oshiriladi. Natijada soliq deklaratsiyasini topshirish zaruriyati bekor kilinib, soliq inspektorning aralashuvi ayrim holatlar yuzaga keladi. Kelgusida soliqni hisoblash va to‘lash ustidan nazoratni olib borish, soliq ma’muriyatchiligi jarayonlarini raqamlashtirish inson omili ishtirokini kamaytirib, xarajatlarni minimallashtirishga olib keladi.

2020-yilgi Davlat dasturining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini modernizatsiya qilish orqali soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish” nomli 69-bandida Davlat soliq qo‘mitasining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha strategiyasini ishlab chiqish, “Tahlika-tahlil” dasturiy mahsuli, “Big data” arxitekturasi asosida “Business Intelligence” tahliliy modellari va “Ishonchli hamkor” loyihasini joriy etish kabi muhim vazifalar belgilangan edi. Strategiyaning asosiy vazifalaridan biri bu – amaliyotga Business Intelligence va Big Data texnologiyalarini joriy etish hisoblanadi. Bu orqali:

- katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tezkor tahlil qilish tizimlari kengayadi;
- xufyona aylanmalar darajasi keskin qisqaradi va soliq solinadigan baza kengayadi;
- markazlashgan tizimlar orqali shakllangan ma’lumotlarni qayta ishlash natijasida bozor konyukturasini o‘rganish, tovar va xizmatlarning bozor narxlarini tahlil qilish hamda prognozlash imkoniyati yaratiladi;
- xodimlarning 50-60 foizida ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish bilan shug‘ullanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Soliq organlarining axborot tizimlari majmui to‘liq yagona platformaga o‘tkazilishi natijasida:

- ma’lumotlarni kiritish, to‘plash, tahlil qilish tizimlari optimallashtiriladi;
- ma’lumotlar bazasida katta yuklanishlarning oldi olinadi;
- soliq to‘lovchilarning hisobot topshirish jarayoni 5-7 barobargacha yengillashtiriladi;
- inson omili aralashuvi 60 foizga qisqaradi;
- soliq ma’muriyatchiligi modernizatsiya qilish va nazoratning mutlaqo yangi tizimini yaratishga imkoniyat yaratadi.

Strategiyani joriy etish natijasida biznes jarayoniga sarflangan umumiy vaqtni 20-30 foizgacha qisqartirishga erishiladi.

Strategiyada nazarda tutilayotgan Case Management System, Case Assesment System tizimlari soliq auditi jarayonini avtomatik tarzda qayd etish, monitoring qilish, ma’lumot va tahlillardan foydalanish yordamida soliq tizimini bir muncha takomillashtirilishini ta’minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Голик Е. Н. Цифровизация администрирования НДС в системе обеспечения экономической безопасности doi: 10.22394/2079-1690-2021-1-2-103-109.
2. Aplin P. Digitalisation of tax: international perspectives. URL: https://www.icaew.com
3. Карпова О. М. Трансформации налога на добавленную стоимость в условиях форсированной цифровизации российской экономики текст научной статьи по специальности «экономика и бизнес» ЖУРНАЛ ВЕСТНИК ТОМСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА. ЭКОНОМИКА 2019.В
4. Trenta C. European VAT and the digital economy. URL: https://www.business.unsw.edu.au
5. Афанасенко И.Д., Борисова В.В. Цифровая логистика : учеб. для вузов. СПб. : Питер, 2018. 272 с.

### Интернет манбалари

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги «Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сон Фармони. lex.uz›ru
2. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 26 декабрдаги ЎРҚ360сон Қонуни билан тасдиқланган.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 30 декабрдаги “Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2023 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-812-сон Қонуни. lex.uz
4. Что такое цифровизация? URL: https://www.e-xecutive.ru
5. https://review.uz
6. https://review.uz

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.